

INGLIZ VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIZMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Tursunov Mirzohid Ikromjon o‘g‘li

O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti kichik ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi ya’ni frazeologiya sohasi haqida bo‘lib, maqolada uning zamonaviy tilshunoslik sohasidagi o‘rni va ahamiyati tadqiq qilingan. Turli konseptlarni ifodalashda frazeologik birliklar uni ravshan, tushunarli va ta’sirchan usulda ifodalashga xizmat qiladi, hamda frazeologizmlar boshqa tillardagi kabi ingliz va o‘zbek tilida ham ushbu xalqlarning o‘ziga xos fikrlash tarzini ko‘rsatuvchi stereotip sifatida ifodalanadi.

***Kalit so‘zlar:** frazeologiya, frazeologizm, kognitiv lingvistika, turg‘un birikma, lingvomadaniy birlik, stereotip.*

Jahon tilshunosligida frazemalar masalasi, ularning struktur-semantik tuzilishidagi o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli tillar materiallari asosida keng doirada o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, XXI asrga kelib frazema masalasini lingvomadaniyatshunoslik doirasida tadqiq qilish, turli xalqlar tafakkurida olamning idrok etilishi va tilda aks etishining noyob, o‘ziga xos milliy usullari bilan bog‘liq bir qator o‘rganilmagan muammolarni o‘rganish kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shu o‘rinda, olamning lisoniy manzarasini insonning olam haqidagi tasavvurlar tizimi sifatida o‘rganish maqsadida tilning o‘ziga xos frazeologik birliklarini turli tizimli tillar misolida chog‘ishtirma tadqiq etish masalasi ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga egadir.

Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarni noyob namunalar sifatida o'rganish, qiyosiy-chog'ishtirma, tasnifiy, tavsifiy tadqiqotlar olib borish, shu bilan birgalikda, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning semantikasidagi izomorf va allomorf xususiyatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli har bir tildagi frazeologizmlar o'sha xalq yashab turgan muhiti ta'siri hisobiga boyib borishini ochib berish, ingliz va o'zbek tillaridagi frazemalarni lingvomadaniy aspektda o'rganish zaruriyatini ifodalaydi.

O'zbek tilining frazeologik zaxirasi, shubhasiz, milliy madaniyatning ajralmas qismi, uning *“oltin sandig'i”* sanaladi. Uni o'zbek tiliga qardosh bo'lmagan tillar bilan chog'ishtirma tadqiqi o'zbek frazeologiyasi asosida yotgan boy milliy madaniyatimiz durdonalarini, tilimizning nodir namunalarini jahon ahli e'tiboriga taqdim etish imkonini beradi. Shunday ekan, turli tizimli tillardagi milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi frazeologizmlar va ularning lingvokulturologik tahlili bo'yicha qiyosiy aspektda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarurati mavjud.

XX asrning o'rtalariga kelib dunyo tilshunosligida tillarning struktur, semantik hamda funksional xususiyatlarini tadqiq qiluvchi yangi lingvistik fan yo'nalishlari shakllana boshladi. An'anaviy fonetika-fonologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis) kabi klassik yo'nalishlar qatoriga tillarning semantik “dunyosi”ni, funksional xususiyatlarini o'rganuvchi, o'rgatuvchi leksikologiya, stilistika kabi sohalari qo'shildi¹.

Leksikologiya so'zlarning etimologiyasi, semantikasi, yangi so'zlarning yasalishi, paydo bo'lish usullari, o'zga tillardan o'zlashtirish darajasi, leksik birliklarning paradigmatic munosabatlarini o'rganish bilan bir qatorda tillardagi o'ziga xos shakllangan turg'un so'z birikmalarini ham o'z obyekt sifatida tadqiq qila boshladi. Turg'un so'z birikmalari ham tildagi har qanday mustaqil so'z kabi tayyor

¹ Кунин А.В. Основные понятия английской фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: Дисс. док. филол. наук. - Москва, 1964. -229 с.

holda qo‘llaniladigan, o‘z ma’no va struktur xususiyatiga ega bo‘lgan lug‘at boyligining to‘laqonli birligi sifatida talqin etila boshladi.

Frazeologiyaning paradigmatic ko‘rinishlari barcha tillarga xos bo‘lgan universal xarakterga ega. Misol uchun, turli tizimli tillarga xos bo‘lgan ingliz, rus va o‘zbek tillarida “o‘lmoq” leksik ma’nosini ifodalovchi qator frazeologik iboralarning bir-biri bilan **sinonimik** munosabatda bo‘lgan holda mavjudligini ko‘rish mumkin:

O‘zbek tilida: olamdan o‘tmoq, qazo qilmoq, o‘lmoq, bandalikni bajo keltirmoq

Ingliz tilida: passed away, to be at peace, to die, kick the bucket, depart this life

Rus tilida: уйти в иной мир, закрыть глаза, умереть, отдать богу душу,

Tillardagi frazeologizmlarning bir-birlari bilan **antonimik** munosabatga kirishishi ham ularning universal xususiyatlaridan hisoblanadi.

O‘zbek tilida: oq ko‘ngil – qora ko‘ngil

dunyoga kelmoq – olamdan o‘tmoq

yerga urmoq – ko‘kka ko‘tarmoq

istarasi issiq – istarasi sovuq

Ingliz tilida: loosen one’s purse strings – tighten one’s purse strings

(hamyon iplarini bo‘shatish – hamyon iplarini mahkamlash)

to earn an honest penny – to live by one’s wits

(halol pul topmoq – kimningdir aqliga yashamoq)

old bird– spring chicken

(qari qush – bahorgi jo‘ja)

good faith - bad faith

(yaxshi niyat – yomon niyat)

Rus tilida: работать не покладая рук - работать спустя рукава

красная суббота – чёрная суббота

красив как бог – страшна как смертный грех

Yuqorida tahlil qilingan misollarning frazeologik tizimga xosligi haqidagi fikr-mulohazalarimiz frazeolog olim A.M.Emirova tomonidan ta'kidlangan quyidagi mulohazalar bilan hamohangdir: "Frazeologiyadagi paradigmatic munosabatlarni tahlil qilish natijasida ajralib turadigan guruhlar va birliklar turkumi (frazeologik uyalar, konseptual mikromaydon, sinonimik va omonimik qatorlar) tilning sinxron holatida ko'pincha bitta frazeologik subsistemada bir-biriga o'xshash va kesishgan mikrosistemalar paydo bo'ladi"¹.

Turli tillardagi frazemalarning shakllanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, voqelanayotgan qandaydir ma'nolar, (semalar) ba'zi bir paytda umuman leksik semantik tizim birliklari orqali namoyon bo'la olmasligini ko'ramiz. Ba'zi hollarda esa leksik birlikning ma'no ko'lamining qaysidir qirralariga qo'shimcha sifatida uning konnotativ "dunyosi"ni boyitish uchun xizmat qiladi. Misol uchun, o'zbek tilidagi "*Temirni qizig'ida bos*" iborasining ingliz va rus tillaridagi to'liq ekvivalenti bo'lgan "*Strike while the iron is hot*", "*куй железо пока оно горячо*" frazemalarining "biron ishni qilmoqchi bo'lsang vaqtida qil" umumiy ma'nosini uchala tilda ham bir yaxlit birlik orqali to'liq ifodalash mushkul. Ibora ma'nosini sharhlash orqali uni to'liq tushunish mumkin, bir so'z ma'nosi bu yerda "*ojizlik*" qiladi. (Qiyoslang: *vaqtida, bos, tez*; ingliz tilida: *on time, fast, strike*; rus tilida: *вовремя, быстро, куй* so'zlari ma'nolari bilan yuqoridagi ibora ma'nosini to'la ifodalash mumkin emas).

Xalqlarning tarixiy davrlardagi jamiyat hayotining axloq va an'analar "oynasi" sifatida maqol va matallar, hikmatli so'zlar o'ta qimmatli til birligidir. Ular ma'lum bir "vaziyat"ni ifodalovchi til birligi sifatida kommunikativ funksiyani bajaradi, ya'ni til egalarining ongida ma'lum informativ ma'lumotlarni chaqirishga xizmat qiladi². Qiziq misol sifatida quyidagi maqollarga e'tibor qarataylik: "biror joyni yoki narsani topish maqsadida til orqali so'rab erishish

¹ Эмирова А.М. Некоторые актуальные вопросы современной русской фразеологии. – Самарканд: Изд-во СамГУ, 1972. – С. 89.

² Tursunova N. Ingliz va o'zbek tillaridagi milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2021. – №1. – B. 207-213.

mumkinligi” o‘zbek tilida – *So‘rab so‘rab Makkani topibdi*, rus tilida – *Язык до Киева доведёт* (til Kiyevga qadar olib boradi), ingliz tilida – *All roads lead to Rome* (*hamma yo‘llar Rimga olib boradi*) kabi til va dinga bog‘liq maqollar orqali ifodalanishi xalqlarning e‘tiqodidagi din markazlari bo‘lgan shaharlar orqali voqelantirishi nafaqat yangi paremiologik ma‘no keltirib chiqarmoqda, balki tarixiy ma‘lumot berishga ham xizmat qilishi bilan diqqatga sazovordir.

“Ko‘pchilik aralashgan biron ish yaxshi natija bermasligini voqelantiruvchi quyidagi maqol o‘zbeklarda – *qo‘ychivon ko‘p bo‘lsa, qo‘y harom o‘ladi*; ruslarda – *у семи нянек дитя без глаз* – so‘zma-so‘z: *enaga yetita bo‘lsa, bola qarovsiz qolar*; inglizlarda – *too many cooks spoil the broth* – so‘zma-so‘z: *oshpaz ko‘p bo‘lsa, ovqat buziladi*, kabi milliy xususiyatni aks ettiruvchi birliklar orqali ifodalanadi. E‘tibor bering-a, olam manzarasini aks ettirishda quyidagi keltirilgan misollar yuqorida ta‘kidlangan fikrlarimizni isbot qilish uchun yaqqol dalildir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bir qator frazemalar o‘zlarining ma‘no-mazmuni bilan o‘zbek xalqining turfa hayot tarzini ifodalash maqsadida yaratilgan, ularning qo‘llanish ko‘lami shu qadar kengki, bu frazemalarni alohida shakllangan guruhlariga ajratishning iloji yo‘q. Frazemalarning ushbu xususiyatlari ularning til tizimida tutgan alohida maqomini yana bir bor ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedova Odinaxon Abdullajon qizi. “Lingvokulturologiya tilning madaniy fenomeni sifatida”. Xorijiy filologiya til, adabiyot, ta‘lim ilmiy-uslubiy jurnali. 2019. -102-104.
2. Эмирова А.М. Некоторые актуальные вопросы современной русской фразеологии. – Самарканд: Изд-во СамГУ, 1972. – С. 89.
3. Кунин А.В. Основные понятия английской фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: Дисс. док. филол. наук. - Москва, 1964. -229 с.
4. Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиялогия. - Москва, 1988г

5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 405 б.
6. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskii, pragmaticeskii i lingvokulturologicheskiy aspekti. - M.: Shkola "Yaziki russkoy kulturi", 1196 – S.222.
7. Tursunova N. Ingliz va o‘zbek tillaridagi milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2021. – №1. – B. 207-213.